Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.111
FILOLOGIYA

INGLIZ VA O'ZBEK ILMIY DISKURSINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Zebuniso Abduhafizovna Abdug'aniyeva*
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti Toshkent, O'zbekiston
✉ za.abduganiyeva@uzswlu.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi ilmiy maqolalar korpuslari asosida ilmiy diskursning leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda muallif tomonidan shakllantirilgan ingliz (ECRA) va o'zbek (UCRA) ilmiy maqolalar korpuslari materiallaridan foydalanilgan. Korpus ma'lumotlari Sketch Engine platformasi yordamida tahlil qilinib, leksik birliklarning mutlaq chastotasi, normallashtirilgan chastotasi hamda korpus bo'ylab tarqalish darajasi (DOCF va Relative DOCF) aniqlangan. Natijalar ingliz va o'zbek ilmiy diskursida umumilmiy va terminologik leksikaning shakllanishi o'xshash qonuniyatlarga asoslanishini, biroq ularning qo'llanish chastotasi va funksional taqsimotida muayyan farqlar mavjudligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar

ilmiy diskurs, leksik-semantik tahlil, ilmiy leksika, terminologiya.

DOI: 10.5281/zenodo.21743101

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda korpus lingvistikasi katta hajmdagi matnlarni obyektiv va statistik jihatdan tahlil qilish imkonini beruvchi samarali metodologik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ilmiy matnlarni korpus asosida o'rganish nafaqat alohida til birliklarining qo'llanish xususiyatlarini, balki ilmiy diskursning umumiy qonuniyatlarini aniqlash imkonini ham kengaytirdi. Ayniqsa, ilmiy maqolalar korpuslarini tahlil qilish orqali akademik uslubning leksik tarkibi, terminologik tizimi hamda umumilmiy leksikaning qo'llanish xususiyatlarini ishonchli empirik ma'lumotlar asosida tavsiflash mumkin.

Ingliz tilida ilmiy diskurs korpuslari asosida olib borilgan tadqiqotlar akademik leksikaning shakllanishi va ilmiy kommunikatsiyadagi funksiyalarini batafsil yoritgan bo'lsa, o'zbek tilidagi ilmiy matnlarning korpus lingvistikasi metodlari asosida o'rganilishi hali yetarli darajada rivojlanmagan. Ayniqsa, ingliz va o'zbek ilmiy diskursining leksik-semantik xususiyatlarini yagona metodologik yondashuv asosida qiyosiy tahlil qiluvchi tadqiqotlar kam uchraydi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi muallif tomonidan yaratilgan ingliz va o'zbek ilmiy maqolalar korpuslari asosida ilmiy diskursning leksik-semantik tuzilishini qiyosiy jihatdan tahlil qilish hamda umumilmiy va terminologik leksikaning qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism

Jahon tilshunosligida katta hajmdagi matnlarni korpus tahlili dasturlari (*AntConc, Sketch Engine* va h.k.) orqali tahlil qilish matnlarning lingvistik xususiyatlari haqida obyektiv xulosalar chiqarish imkonini beradi [4: 53]. Mazkur tadqiqotda ingliz va o'zbek ilmiy diskursining leksik-semantik xususiyatlari *Sketch Engine* dasturi yordamida tuzilgan ingliz va o'zbek tillaridagi ikki alohida korpus materiallari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot korpus lingvistikasi va qiyosiy diskurs tahlili metodologiyasiga asoslanadi. Empirik material sifatida

muallif tomonidan shakllantirilgan ingliz tilidagi *English Corpus of Research Articles* (ECRA) hamda o‘zbek tilidagi *Uzbek Corpus of Research Articles* (UCRA) korpuslaridan foydalanildi. Korpuslar 2024–2025-yillarda nashr etilgan tilshunoslik va unga yondosh yo‘nalishlardagi ilmiy maqolalar asosida tuzilgan bo‘lib, umumiy hajmi 422 767 ta so‘z va 18 525 ta gapni tashkil etadi. Korpusni shakllantirishda janriy, sohaviy, davriy va hajmiy moslik tamoyillariga amal qilindi. Har ikkala korpusga ilmiy tadqiqot maqolalari kiritildi, maqolalar soni tenglashtirildi hamda faqat ishonchli ilmiy jurnallarda chop etilgan manbalardan foydalanildi. Bu qiyosiy tahlil natijalarining ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi.

Leksik tahlil Sketch Engine platformasi yordamida amalga oshirildi. Har bir leksik birlik mutlaq chastota (Frequency), normallashtirilgan chastota (Normalized Frequency), hujjatlar chastotasi (Document Frequency – DOCF) hamda nisbiy hujjatlar chastotasi (Relative DOCF) ko‘rsatkichlari asosida baholandi. Ushbu ko‘rsatkichlar leksik birliklarning nafaqat korpusdagi uchrash sonini, balki ularning maqolalar bo‘ylab tarqalish darajasini ham aniqlash imkonini berdi. Mutlaq chastota leksik birlikning korpusda necha marta uchraganini ko‘rsatsa, normallashtirilgan chastota uning har 1000 ta so‘zga nisbatini ko‘rsatadi. DOCF birlikning nechta maqolada qo‘llanganini bildirsa, Relative DOCF bu ko‘rsatkichni foizda ifodalaydi. Masalan, korpus 34 ta maqoladan iborat bo‘lsa va biror birlikning Relative DOCF ko‘rsatkichi 100 foiz bo‘lsa, demak, bu birlik barcha maqolalarda uchragan bo‘ladi. S. Th. Gries ta’kidlaganidek, leksik birlikni baholashda ularning chastotasi bilan birga matnlar bo‘ylab tarqalishiga ham e’tibor berish kerak [3: 403–404]. Chunki ayrim so‘z bitta maqolada juda ko‘p takrorlanib, chastota ro‘yxatida yuqori o‘ringa chiqishi mumkin, lekin u butun korpus uchun xos birlik bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun chastota va tarqalish ko‘rsatkichlarini birga tahlil qilish umumilmiy leksika bilan tor sohaga oid terminlarni farqlashda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek korpusida avtomatik lemmatizatsiya imkoniyatlari cheklangani sababli tahlil asosan so‘z shakli (word form) darajasida olib borildi. Chog‘ishtirma tahlilning bir xilligini saqlash maqsadida ingliz korpusidagi natijalar ham so‘z shakli (word form) asosida talqin qilindi. Biroq bir lug‘aviy birlikning grammatik variantlari, masalan *study* va *studies*, *teacher* va *teachers*, *student* va *students* kabi shakllar semantik talqinda bir guruh doirasida ko‘rib chiqildi. Shu metodologik izoh natijalarni ortiqcha umumlashtirishning oldini oladi va chastotaviy ko‘rsatkichlarni ehtiyotkor talqin qilish imkonini beradi.

Ingliz korpusining leksik-semantik tuzilishi

Ingliz korpusidagi yuqori chastotali birliklar umumilmiy leksika bilan tanlangan maqolalarga xos mavzuviy-sohaviy birliklar o‘zaro uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. *Research, study, analysis, data, findings, results, information, knowledge* kabi birliklar tadqiqot jarayoni, dalil, natija va ilmiy axborotni ifodalovchi umumilmiy qatlamni tashkil etadi. *Language, teaching, students, teachers, learners, academic, writing, resources, practices* kabi birliklar esa ingliz korpusining mavzuviy yo‘nalishi, ya’ni til ta’limi va pedagogik amaliyot doirasiga mansubligini bildiradi. (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Ingliz korpusida yuqori chastotali leksik birliklar

№	Birlik	Mutlaq chastota	Har 1000 so‘zga	DOCF	Nisbiy DOCF (%)
1	students	1084	4,19	31	91,18
2	language	1040	4,02	34	100,00
3	research	914	3,53	34	100,00
4	English	855	3,3	34	100,00
5	study	805	3,11	34	100,00
6	teachers	749	2,89	27	79,41
7	academic	647	2,5	32	94,12
8	learning	541	2,09	28	82,35
9	words	498	1,92	30	88,24
10	content	460	1,78	29	85,29
11	knowledge	439	1,7	31	91,18
12	analysis	407	1,57	34	100,00
13	participants	388	1,5	26	76,47

№	Birlik	Mutlaq chastota	Har 1000 so‘zga	DOCF	Nisbiy DOCF (%)
14	learners	379	1,46	18	52,94
15	data	336	1,3	34	100,00
16	writing	335	1,29	28	82,35
17	teaching	320	1,24	29	85,29
18	corpus	303	1,17	16	47,06
19	resources	298	1,15	27	79,41
20	practices	295	1,14	29	85,29
21	findings	294	1,14	33	97,06
22	information	292	1,13	30	88,24
23	results	287	1,11	32	94,12
24	context	278	1,07	33	97,06

Jadvaldagi natijalar mutlaq chastota bilan tarqalish ko‘rsatkichini birgalikda talqin qilish zarurligini tasdiqlaydi. *Language, research, study, analysis* va *data* kabi so‘zlar barcha 34 maqolada uchragan. Bu ularning ingliz korpusining barqaror tarkibiy qismlari ekanini ko‘rsatadi. Aksincha, *corpus* 303 marta qayd etilganiga qaramay, faqat 16 maqolada uchraydi. Demak, mazkur termin korpus lingvistikasi bilan bog‘liq maqolalarda yuqori darajada takrorlangan, biroq ingliz korpusining barcha matnlariga birdek tarqalmagan.

E. V. Kravtsova umumilmiy leksika ilmiy bilishning barcha bosqichlarini, obyekt va jarayonlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqalarni ifodalovchi “metatil” vazifasini bajarishini qayd etadi [1: 110]. Muallif tahliliga ko‘ra ingliz ilmiy matnlari leksikasining salkam 59% qismini aynan umumilmiy leksika, tor doiradagi terminlar ulushi esa taxminan 10-11% atrofida bo‘lishini aniqlagan [1: 111]. Umumilmiy so‘zlar ilmiy matnning bosh mavzusini ilmiy jihatdan tushuntirish, isbotlash va qo‘llab-quvvatlash uchun yordamchi mexanizm bo‘lib xizmat qiladi [2: 213]. Bunday so‘zlar qatoriga *analysis, approach, demonstrate, strategy, research, investigate* kabilarni kiritish mumkin. Shu bilan birga, K. Hyland va P. Tse umumakademik leksikaning fanlararo bir xil taqsimlanmasligini ko‘rsatib, uni muayyan fan va janr kontekstida talqin qilish zarurligini ta’kidlaydi [5: 235–253]. D. Gardner va M. Davies esa katta hajmli akademik korpus hamda chastota va tarqalish mezonlari asosida Academic Vocabulary List ro‘yxatini taklif etib, akademik leksikani aniqlashda dispersiya ko‘rsatkichining metodologik ahamiyatini asoslaydi [6: 305–327].

Ingliz korpusida *research* (3,53/1000) va *analysis* (1,57/1000) birliklarining 100 foizlik DOCF ko‘rsatkichi ularni ingliz ilmiy maqolalarining metodologik qurilishini ta’minlovchi markaziy umumilmiy leksik birliklar sifatida baholashga imkon beradi.

Research ilmiy faoliyatni keng jarayon sifatida nomlaydi. Uning *research questions, research process, research findings, future research, more research, little research* va *research is needed* kabi birikmalari ilmiy maqolaning muammo qo‘yishdan kelgusi izlanishlarni belgilashgacha bo‘lgan bosqichlarini leksik jihatdan birlashtiradi. *Research questions* tadqiqot muammosini savol shaklida chegaralaydi; *research process* bajarilgan amallar izchilligini nomlaydi; *research findings* olingan natijalarni alohida bilim mahsuli sifatida ko‘rsatadi. *Future research* va *research is needed* birikmalari esa mavjud bilimdagi bo‘shliqni qayd etib, keyingi izlanish zaruratini asoslaydi. Shunday qilib, *research* ilmiy argumentning rivojlanish trayektoriyasini belgilovchi leksik markazdir.

Analysis leksemasi *data analysis, document analysis, genre analysis, discourse analysis, critical genre analysis* va *critical multimodal analysis* kabi birikmalarda tahlilning materiali, obyekti yoki nazariy yo‘nalishini aniqlashtiradi. Bunday terminologik birikmalarda birinchi komponent tahlil turini chegaralaydi, analysis esa umumiy metodologik yadro vazifasini bajaradi. *The analysis shows* konstruksiyasida esa mazkur birlik bajarilgan metodni nomlashdan tashqari xulosaning daliliy manbasini ko‘rsatadi: hukm muallifning subyektiv fikri sifatida emas, tahlil natijasidan kelib chiqqan xulosa sifatida taqdim etiladi. Shu tariqa *analysis* metodologik va argumentativ funksiyalarni birlashtiradi.

Study, data, findings va *results* birliklari ham mazkur konseptual maydonning semantik sheriklari hisoblanadi. *Study* muayyan tadqiqot yoki maqolaning o‘zini nomlaydi; *data* empirik bazani, *findings* aniqlangan kuzatuv va tendensiyalarni, *results* esa qayta ishlangan natijalarni ifodalaydi. Ularning *research* va *analysis* bilan bir kontekstda kelishi ilmiy faoliyatni muammo – material – metod – natija zanjiri asosida konseptuallashtiradi. Bu zanjir ilmiy axborotning faqat mazmunini emas, uning qanday hosil qilinganini ham leksik darajada ko‘rsatadi.

Language (4,02/1000) va *English* (3,30/1000) leksemalari ingliz korpusi terminologik qatlamining markaziy birliklari hisoblanadi.

Language education, second language, English language teaching, language learner, language proficiency va *language practices* kabi kollokatsiyalar language leksemasining turli semantik rollarini namoyon etadi. U *language education* va *English language teaching* birikmalarida ta’lim obyekti hamda sohasi, *second language* birikmasida

o‘zlashtirilayotgan kod, *language proficiency*da kompetensiya obyekti, *language practices*da esa ijtimoiy-kommunikativ faoliyat sifatida talqin qilinadi. *English* leksemasi esa ko‘pincha tadqiqotning tilini yoki obyektini belgilovchi aniqlovchi sifatida keladi: *academic English, English-medium instruction, English learners* va *English language teaching*.

Words, meaning, texts, communication va discourse birliklari tilning leksik, semantik, matniy va ijtimoiy o‘lchamlarini bir-biriga bog‘laydi. Words til materialining diskret birliklarini, meaning ularning semantik mazmunini, texts mazmunning konkret matniy shaklini, communication va discourse esa ushbu shakllarning ijtimoiy faoliyatda amal qilishini ifodalaydi. Mazkur leksik qator ingliz korpusida tilning faqat formal tizim sifatida emas, ta’lim, savodxonlik, identitet va institutsional muloqot bilan bog‘langan dinamik hodisa sifatida konseptuallashtirilganini ko‘rsatadi.

O‘zbek korpusining leksik-semantik tuzilishi

O‘zbek korpusining chastota ro‘yxatida umumilmiy va terminologik birliklar o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. *Tahlil, tadqiqot, jarayon, natija, maqsad, asos* kabi umumilmiy birliklar tadqiqot faoliyatini nomlash, fikrni tartiblash, natijani bayon qilish va uning ahamiyatini belgilashga xizmat qiladi. *Til, matn, tarjima, so‘z, birlik, ma’no, nutq, frazeologik va leksik birliklar* esa korpusning filologik yo‘nalishini aks ettirib, tilshunoslik, matnshunoslik, tarjimashunoslik, frazeologiya va leksikologiyaga oid tushunchalarni ifodalaydi. (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

O‘zbek korpusida yuqori chastotali leksik birliklar

№	Birlik	Mutlaq chastota	Har 1000 so‘zga	DOCF	Nisbiy DOCF (%)
1	til	1 880	11,47	32	94,12
2	matn	854	5,21	26	76,47
3	tarjima	759	4,63	20	58,82
4	so‘z	752	4,59	31	91,18
5	tahlil	691	4,22	34	100,00
6	birlik	690	4,21	25	73,53
7	ma’no	520	3,17	33	97,06
8	nutq	506	3,09	28	82,35
9	jarayon	483	2,95	34	100,00
10	tadqiqot	474	2,89	34	100,00
11	frazeologik	434	2,65	12	35,29
12	inson	434	2,65	31	91,18
13	xususiyat	422	2,57	34	100,00
14	ingliz	395	2,41	22	64,71
15	asos	369	2,25	33	97,06
16	natija	348	2,12	34	100,00
17	vosita	344	2,10	33	97,06
18	ijtimoiy	337	2,06	31	91,18
19	muhim	336	2,05	34	100,00
20	asosiy	334	2,04	33	97,06
21	o‘zbek	295	1,80	25	73,53
22	maqsad	288	1,76	34	100,00
23	ilmiy	268	1,64	29	85,29
24	leksik	237	1,45	22	64,71

O‘zbek korpusidagi eng faol birlik ***til*** bo‘lib, 1 880 marta yoki har 1000 so‘zga 11,47 marta uchragan. Uning 32 maqolada qayd etilishi mazkur leksemaning korpus bo‘ylab keng tarqalganini ko‘rsatadi. Konkordansda *til tizimi, til sathlari, til vositalari, til birligi, til materiali, til me’yori, til kategoriyasi, til vaziyati* kabi birikmalar ustun bo‘lib, ushbu leksema tilshunoslikning asosiy tadqiqot obyektini nomlaydi. Demak, *til* leksik birligi o‘zbek korpusining terminologik va predmet-mavzuviy yadrosini tashkil etadi.

Matn leksemasi *matn modalligi, matn tilshunosligi, matn mazmuni, matn tarkibi, badiiy matn* va *matn kategoriyasi* kabi birikmalarda matnshunoslik hamda diskurs tahliliga oid tushunchalarni ifodalaydi. *Ma’no, nutq, leksik* va *birlik* leksemalari ham ko‘p komponentli terminologik birikmalar tarkibida maxsuslashadi: *leksik ma’no, pragmatik ma’no, nutq akti, ilmiy nutq, leksik birlik, frazeologik birlik, til birligi*. O‘zbek korpusining terminologik qatlami ko‘pincha aniqlovchi-aniqlanmish munosabatiga asoslangan barqaror terminologik birikmalar orqali shakllanadi.

Tahlil, tadqiqot, jarayon, natija, maqsad va *asos* kabi birliklar o‘zbek korpusi umumilmiy leksikasining tayanch birliklarini tashkil qiladi.

Tahlil leksemasi 691 marta uchrab, barcha 34 maqolada qayd etilgan. *Qiyosiy tahlil, kontekstual tahlil, komponent tahlil, semantik tahlil, lingvistik tahlil, statistik tahlil, korpus tahlili* va *tahlil metodi* birikmalarida u metodologik yadro vazifasini bajaradi. *Tahlil natijalari, tahlil asosida, tahlil shuni ko‘rsatadiki* kabi qurilmalarda esa bajarilgan ilmiy amaldan natija va xulosaga o‘tishni ta’minlaydi. Bu xususiyat ingliz tilidagi *analysis* leksemasining *data analysis* va *the analysis shows* kabi qo‘llanishlariga funksional jihatdan yaqin.

Frazeologik leksemasining 434 martalik yuqori chastotasiga qaramay, uning DOCF ko‘rsatkichi 12 ta maqola yoki 35,29 foizni tashkil etadi. Bu mazkur birlikning frazeologiyaga bag‘ishlangan ayrim maqolalardagina intensiv qo‘llangan mavzuviy termin ekanini anglatadi. Mazkur holat chastotani DOCF ko‘rsatkichisiz talqin qilishning xavfini aniq ko‘rsatadi: mutlaq miqdor yuqori bo‘lsa-da, birlikning korpus bo‘ylab dispersiyasi cheklangan.

Tarjima leksemasi ham yuqori chastotali bo‘lib, 20 ta maqolada qayd etilgan. *Tarjima jarayoni, badiiy tarjima, tarjima strategiyasi, tarjima birligi, tarjima muammosi* kabi birikmalarda u tarjimashunoslikka xos konseptlarni nomlaydi. Mazkur birlikning til va matn bilan bir kontekstda kelishi tarjimani alohida natija emas, tillararo va matnlararo kommunikativ jarayon sifatida konseptuallashtiradi.

Tadqiqot leksemasi 474 marta uchrab, barcha maqolalarda qayd etilgan. *Tadqiqot maqsadi, tadqiqot vazifalari, tadqiqot materiali, tadqiqot metodi, tadqiqot jarayoni, tadqiqot natijalari* va *kelgusi tadqiqotlar* birikmalari ilmiy faoliyatning bosqichlarini leksik jihatdan belgilaydi. *Tadqiqot maqsadi* muammo va yo‘nalishni, *tadqiqot materiali* empirik bazani, *tadqiqot metodi* bilim hosil qilish usulini, *tadqiqot natijalari* esa yakuniy bilim mahsulini nomlaydi. Mazkur kollokatsiyalar ilmiy maqolaning konseptual tuzilishini maqsad – material – metod – tahlil – natija ketma-ketligida tashkil etadi.

Jarayon, natija va *maqsad* birliklarining 100 foizlik DOCF ko‘rsatkichi ham ularning umumilmiy xususiyatini tasdiqlaydi. *Jarayon* hodisaning dinamik rivojini, *natija* ilmiy faoliyatning hosilasini, *maqsad* esa tadqiqotning yo‘nalishini va kutilayotgan yakunini bildiradi. *Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, natijalariga ko‘ra, buning natijasida, tadqiqot maqsadi, asosiy maqsad* kabi qoliplar ushbu birliklarning ilmiy axborotni tartiblash va xulosalash funksiyasiga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Leksik qatlamlarning kontekstual chegaralanishi

Korpus natijalari leksik birliklarni faqat uch qatlamdan biriga qat’iy joylashtirish har doim ham mumkin emasligini ko‘rsatadi. Birlikning maqomi uning aniq kontekstdagi semantik ma’nosi bilan belgilanadi. Masalan, *model so‘zi umumiste’mol birlik bo‘lib, adabiy tilda* ham namuna ma’nosini bildirishi mumkin, ilmiy diskursda esa nazariy model, statistik model yoki ta’lim modeli kabi maxsus tushunchalarni nomlaydi.

Umumiste’mol leksikasining ilmiy kontekstdagi roli ham shu nuqtai nazardan baholanadi. Asosiy, muhim, umumiy kabi birliklar kundalik tilda ham ishlatiladi, biroq ilmiy matnda ular axborotning iyerarxiyasini belgilash, dolzarblikni ko‘rsatish va umumlashtirish vazifasini bajaradi. Ingliz tilidagi important, main, general, current, previous birliklari ham shunga o‘xshash funksional maxsuslashuvga ega. Shunday qilib, ilmiy diskurs umumiy til resurslarini institutsional maqsad va ilmiy argumentatsiya talablariga mos ravishda qayta funksionallashtiradi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi ilmiy maqolalar korpuslari asosida ilmiy diskursning leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Korpus lingvistikasi metodlari hamda *Sketch Engine* platformasi yordamida amalga oshirilgan tahlil ilmiy diskursda qo‘llaniladigan umumilmiy va terminologik leksikaning tarkibi, chastotasi hamda korpus bo‘ylab tarqalish xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil natijalari ingliz va o‘zbek ilmiy diskursida umumilmiy leksikaning ilmiy matnning konseptual asosini tashkil etishini ko‘rsatdi. Har ikkala korpusda *research/tadqiqot, analysis/tahlil, results/natija* kabi birliklar ilmiy faoliyatning asosiy bosqichlarini ifodalovchi markaziy leksik vositalar sifatida namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga, terminologik qatlam tanlangan fan sohasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ingliz korpusida til ta’limi va akademik yozuvga oid terminlar, o‘zbek korpusida esa tilshunoslik, matnshunoslik va tarjimashunoslik terminlari ustunlik qilishi aniqlandi.

Shuningdek, DOCF va Relative DOCF ko‘rsatkichlari leksik birliklarning korpusdagi real funksional faolligini baholashda muhim ekani aniqlandi. Faqat mutlaq chastotaga tayanish ayrim terminlarning korpus bo‘ylab tarqalish darajasini to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli chastota va tarqalish ko‘rsatkichlarini kompleks tahlil qilish ilmiy diskursni tavsiflashning ishonchli usullaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кравцова Е. В. Научный дискурс: универсальное и культурно-специфическое (на материале жанра «научная рецензия»): дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20. – Челябинск, 2016. – 185 с.
2. Coxhead A. A New Academic Word List // TESOL Quarterly. – 2000. – Vol. 34, No. 2. – P. 213–238.

3. Gries S. Th. Dispersions and Adjusted Frequencies in Corpora // International Journal of Corpus Linguistics. – 2008. – Vol. 13, No. 4. – P. 403–437.
4. McEnery T., Xiao R., Tono Y. Corpus-Based Language Studies: An Advanced Resource Book. – London; New York: Routledge, 2006. – P. 53-56.
5. Hyland K., Tse P. Is There an “Academic Vocabulary”? // TESOL Quarterly. – 2007. – Vol. 41, No. 2. – P. 235–253.
6. Gardner D., Davies M. A New Academic Vocabulary List // Applied Linguistics. – 2014. – Vol. 35, No. 3. – P. 305–327.